

## O'ZBEKISTONDA MILLIY RAQS SAN'ATINING PAYDO BO'LISHI

**Valijonova Sug'diyona Nodirbek qizi**

*O'zDSMI FMF "Xoreografiya jamoalar rahbari" ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Anotatsiya:** *Ushbu maqola mazmunida yurtimizda milliy va professional raqs maktabining paydo bo'lishi, rivojlanish bosqichlari, ilk tashkil etilgan teatr va raqs studiyalari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, mamlakatimiz hududidan topilgan raqs san'ati tarixiga oid manbalar, qadimgi davr raqs san'ati rivoji hamda professional o'zbek milliy raqs maktablari haqida fikrlar bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *professional raqs, ijrochi, Avesto, o'zbek, milliy.*

Raqs san'atning boshqa turlari kabi inson hayoti va uning taraqqiyot bosqichlarini o'rganishning badiiy usuli hisoblanadi. San'at qadimgi davr turmush jarayonlarini o'rganar ekan, ularni badiiy umumlashtirilgan obrazda tasavvur etadi. Raqs – makoniy san'atning shunday turiki, unda badiiy obraz inson gavdasining ritmik uyushgan, tasviriy va ifodali harakatlari bilan ifodalanadi. Mamlakatimiz tarixida san'atning barcha turlari kabi raqs san'atining rivojlanishiga oid manbalar oz sonli bo'lsa-da uchraydi. Masalan, Markaziy Osiyoda bronza davrining oxirlari va ilk temir davridagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy o'zgarishlar muqaddas "Avesto"da keltirilgan ma'lumotlar ham raqs san'atining qadimgi davridayoq shakllanganiga guvohlik beradi. "Avesto" qismlarining diniy-marosimiy ijro shakllari va uning ijro usullariga e'tibor qaratilsa, san'atning boshqa turlari bilan birga raqs san'atining rivojini ham ilg'ash mumkin. Mamlakatimizning qadimiy shaharlari Baqtriya, So'g'diyona, Xorazmdan topilgan ko'plab yodgorliklar o'zbek raqs san'atining qadimiyligidan darak beradi. Xolchayon, Ayritom, Dalvarzintepa, Afrosiyob kabi shahar harobalaridan topilgan ashyoviy dalillar ham raqs san'atining qadimiy tarixga ega ekanligiga guvohlik beradi. Baqtriya va Sug'ddan topilgan yodgorliklar anchagina bo'lib, ular qo'shiq kuylash manzaralarini ham aks ettiradi.

Qadimgi Turonda istiqomat qilgan raqqos va raqqosalar "Buyuk ipak yo'llari" orqali Rum, Misr, Sharqiy Xitoy, Koreya va hatto Yaponiya kabi o'lkalarda o'z san'atlarini namoyish etganliklari haqida ma'lumotlar uchraydi. Raqs san'ati ayniqsa, Amir Temur va Temuriylar davrida ancha rivojlangan va ravnaq topgan. Xalq sayillari va bayramlarning uyushtirilishi natijasida ommaviy maydon raqslari paydo bo'ldi va rivojlandi. Poytaxt hisoblanmish Samarqandning ko'rkam bog'larida saroy qabullari, bayram sayillari muntazam tashkil etilgan, xalq raqs va o'yinlari uyushtirilgan. Ispan elchisi Klavixo ham o'z tarixiy kundaliklarida jozibali va go'zal raqslarga ta'rif bergan.

O'zbek sahna raqs san'atining paydo bo'lishida, uning ravnaq topishida, gullab-yashnashida va butun dunyoga nom taratishida o'zlarining betakror hissasini

qo'shgan, raqs san'atimizning buyuk daholari – Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Yusufjon Qiziq Shakarjonov, Isoxor Oqilov, Roziya Karimova va ularning shogirdlarini yodga olish joizdir. Ular o'zbek xalq raqs san'atining haqiqiy jonkuyarlari va fidoyilari bo'lganlar. Ularning o'zbek raqs san'ati rivoji yo'lida qilgan mashaqqatli mehnatlari, ilmiy-tadqiqotlari milliy raqs san'atimizning bebaho durdonalaridir. Ushbu raqslar o'zbek milliy raqs san'atining meros raqslari majmuasi hisoblanadi. “Munojot”, “Rohat”, “Tanovor”, “Pilla”, “Paxta”, “Katta o'yin” shular jumlasidandir.



Milliy raqslarimiz pantomimaning eng sodda shakllaridan tortib, professional mumtoz raqs durdonalarini ham o'z ichiga oladi. O'zbek milliy raqslari davrlar mobaynida sayqallanib, avlodan-avlodga boy ijodiy meros sifatida o'tib kelmoqda. Bu raqslar asosan professional raqs ustalari tomonidan yaratilgan va mahorat bilan ijro etilgan va raqs shakli, harakatlari hamda musiqasi tartiblangan bebaho san'at durdonalaridir. Mana shunday o'zbek raqslari uzoq yillar mobaynida aholi orasida bayram va keng jamoatchilik marosimlari bilan bog'liq holda, an'anaviy shakllarda hamda zamonaviy sahna talablari asosida qayta sayqallangan ko'rinishlarda rivojlanib kelmoqda. Shuningdek, har bir raqsning o'z tarixi va mazmuni, o'ziga xos jilosi va ko'rinishiga ega ekanligi barchamizga ma'lum. O'zbek milliy raqs maktablari harakatlarning jozibadorligi, turli-tumanligi, nafisligi, boyligi bilan alohida ajralib turadi. Bu harakatlarning nomi va turlari ham juda ko'p. Ularning har biri alohida shaklga, tasviriy bo'yog'iga va ijro uslubiga ega. O'zbek xalqining ko'hna raqs san'atini tiklash an'anaviy raqs san'atini tasniflash jadvalini tuzib chiqish imkonini berdi. Bunda uchta raqs maktablarining guvohi bo'lishimiz mumkin. Bular: Farg'ona, Buxoro va Xorazm raqs maktablaridir. Mana shu uchta raqs maktabiga oid raqslar har

birining harakatlar mazmunini va xoreografik tafakkur zamiriga qurilganligini alohida e'tirof etish lozim. Bu maktablarga xos raqslar o'z uslublari, harakatlari, holatlari hamda o'z liboslariga ega. Bundan tashqari, ularning har birini o'ziga xos mazmuni, ohanglari, his-tuyg'ulari, shakllanish tarixi va ijro etish uslublari bor. Shuning uchun ham o'zbek raqs maktablarining har biri o'ziga xos nafis kuy-ohanglari va harakatlari bilan ajralib turadi.

O'zbek milliy ashula va raqs san'atining tarixini yanada chuqurroq o'rganish va keng jamoatchilikka targ'ib etish maqsadida 1930-yilda Samarqand shahrida Muhiddin Qori Yoqubov boshchiligida studiya tashkil etildi. Ushbu studiyada mohir san'atkor va soha mutaxasislari Usta Olim Komilov, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Gavhar Rahimova, Komil Yashin, Mutavakkil Burxonov va boshqalar san'at durdonalarida talabalarga saboq berganlar. 1934-yilda esa raqs sohasida professional kadrlarni tayyorlash maqsadida Toshkent shahrida birinchi balet maktab-studiyasi tashkil etilgan. Shu tariqa ilk O'zbekistonda raqs san'atidan ta'lim beruvchi professional o'quv maskani paydo bo'ldi. Maktab-studiyada taniqli san'atkorlar jumladan: Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Timurbek, Yelena Obuxova, Valentina Gubskaya va Usta Olim Komilovlar ta'lim berganlar. 1939-yilda ushbu maktab studiyaga Tamaraxonim nomi berilgan. 1947-yildan Xoreografiya bilim yurti sifatida faoliyat yurita boshlagan. 2020-yilda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbuslari bilan O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi tashkil etildi. Akademiya tarkibiga Respublika xoreografiyaga ixtisoslashtirilgan maktab-internati kiritildi, shuningdek, akademiya huzurida Buxoro, Qarshi, Namangan va Urganch shaharlarida ixtisoslashtirilgan boshlang'ich raqs san'ati maktab-internatlari tashkil etildi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, qisqa davr ichida o'zbek professional milliy raqs san'ati paydo bo'ldi va o'zbek milliy raqs san'ati butun dunyoga nom tarata boshladi. Shuningdek, o'zbek raqs san'ati har bir maktabida o'ziga xos shakl ketma-ketligi, kuy va ohanglar jilosi, imo-ishoralar, professional harakat holatlariga ega bo'ldi. Raqs barcha san'at turlarining eng ulug'vori, eng nafisi va eng go'zali deya olamiz. Chunki, raqs shunchaki san'atning bir turi emas, balki raqs hayotning o'zi, uning betakror sarchashmasidir. Raqs insonning ichki dunyosini, ruhiy olamini harakatlar orqali namoyon qiladi. Shuningdek, inson sog'ligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, uni tashvish va stressdan halos qiladi. Raqs va tananing alohida qismlarining harakatlarini ozod qilish yordamida biz o'zimizni o'zgartirishimiz va o'zimiz xohlagan hamma narsani rivojlantirishimiz mumkin. Biz o'z navbatida xoreografiyaning ma'nosini raqs san'atiga qiziqishlarimiz bilan ifodalashga harakat qilamiz va tomoshabin buni ko'rishi va raqsda nimani o'ylayotganimizni va his qilayotganimizni tushunishi uchun harakat qilamiz. Shuning uchun ijrochilar yanada ko'proq o'rganishlari va raqs san'ati tarixi, rivojlanishini chuqur o'zlashtirishlari, o'zbek raqsining uchta raqs maktabi an'analarini, o'ziga xosligini, milliy xarakterini saqlash

eng muhim vazifalardan biridir. O'zbek raqs san'atida milliylikni saqlash, ustoz san'atkorlarning ijodi va tajribasidan o'rnak olgan holda yangi raqslar yaratish maqsadga muvofiqdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Muxamedova, "Jahon va o'zbek xoreografiya san'ati tarixi" o'quv qo'llanma, - T.: "Fan ziyosi" nashriyoti, 2021. 196-bet.
2. R.Dosmetova N.Abraykulova "Raqs" darslik – T.: "Barkamol fayz media", 2017, 160 bet.
3. M.M.Maxmudova "O'zbek raqsini o'qitish uslubiyoti", O'quv qo'llanma, - T.: - "Navro'z" nashriyoti, 2020. – 100 bet.
4. E.Y.Saitova, N.E.Abraykulova. Xoreografiya va raqs san'ati asoslari. – T.: "Fan va texnologiya", 2015, 128 bet.
5. E.Y.Saitova "O'zbek raqsini o'rganish uslubiyoti" o'quv qo'llanma – T.: "Fan ziyosi" nashriyoti. 2022. 128 b.
6. Sh.Xudoynazarova // O'zbek xoreografiya san'ati namunalari, o'quv qo'llanma – T.: "Fan ziyosi" nashriyoti. 2023. 196 b.
7. Abraykulova, Nasiba. Raqs san'ati asoslari [Matn]: o'quv qo'llanma / N.Abraykulova. – Toshkent: "Donishmand ziyosi", 2023. – 128 bet.
8. E.Y.Saitova "O'zbek raqsini o'rganish uslubiyoti" o'quv qo'llanma - .: "Fan ziyosi" nashriyoti. 2022. 124 b.
9. G.N.Usmanova, "Raqs kompozitsiyasi asoslari", o'quv qo'llanma – T.: "Fan ziyosi" nashriyoti. 2022. 153 b.
10. Tursunova Gulsanem Yusupbayevna "Raqs" o'quv qo'llanma/. – Toshkent: "NIF MSh", 2021, 114 b.
11. Abraykulova N.E. "Raqs" O'quv qo'llanma. / N.E.Abraykulova: O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti. – T.: "Turon-Iqbol", 2018. – 156 b.
12. "Milliy raqs va xoreografiya san'atining rivojlanishi: an'anaviylik va innovatsiyalar" nomli talabalar an'anaviy ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent – 2018.